

“Temiryo‘linfratuzilma” AJ
“Qarshi MTU” filiali boshlig‘i o‘rinbosari
E.E.Nabiyev
_____ 2026-yil

“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ boshqaruv raisi Z.G‘.Narzullayevning 2026-yil 15-may kunidagi “Joylarda tadbirkorlar bilan uchrashuvlar o‘tkazish to‘g‘risida”gi 136-UN sonli buyrug‘i ijrosini ta‘minlash maqsadida Qarshi shahrida ishlab chiqaruvchi korxonalar rahbarlari va tadbirkorlar bilan o‘tkazilgan sayyor uchrashuv

YIG‘ILISH BAYONI 334

“02” 06 2026-yil

Qarshi shahri

Majlisga raislik etuvchi: “Qarshi MTU” filiali boshlig‘i o‘rinbosari E.E.Nabiyev

Ishtirok etdilar: “Temiryo‘lkargo” AJ Qarshi filiali boshlig‘i A.I.Arslonov;
“Qarshi MTU” filiali Yuk va tijorat ishlari bo‘limi boshlig‘i v.b.Sh.Q.Qurbonov;
Qarshi xujjatlarni qayta ishlash texnologik markazi (TexPD) boshlig‘i T.R.Botirov;
Qarshi stansiyasi boshlig‘i Q.M.Musurmonov.

Taklif etildilar: Qarshi shahri hududida faoliyat yuritayotgan kichik va yirik ishlab chiqarish korxonalari vakillari – jami 18 nafar kishi.

KUN TARTIBIDA:

“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ Boshqaruv raisi Z.G‘.Narzullayevning 2026-yil 15-maydagi “Joylarda tadbirkorlar bilan uchrashuvlar o‘tkazish to‘g‘risida”gi 136-UN-son buyrug‘iga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan o‘tkaziladigan VI ochiq muloqotiga puxta tayyorgarlik ko‘rish, shuningdek, “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ tomonidan tadbirkorlarning murojaatlari, muammolari va takliflarini

tizimli ravishda o'rganish hamda ularni joyida hal etish maqsadida mazkur uchrashuv tashkil etildi.

Eshitildi: Ishlab chiqaruvchi korxonalar rahbarlari hamda tadbirkorlarning murojaatlari, taklif va mulohazalari.

So'zga chiqdi: "Qarshi MTU" filiali boshlig'i o'rinbosari **E.E.Nabiyev**

MAJLISDA ANIQLANDI:

"O'zbekiston temir yo'llari" AJ Boshqaruv raisi Z.G'.Narzullayevning 2026-yil 15-maydagi "Joylarda tadbirkorlar bilan uchrashuvlar o'tkazish to'g'risida"gi 136-UN-son buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida Shahrisabz shahri hududidagi mahalliy, eksport va import yo'nalishlarida faoliyat yuritayotgan yuk jo'natuvchilar hamda yuk qabul qiluvchilarni temir yo'l transportida yuk tashishga keng jalb etish, yuk ortish hajmlarini yanada oshirish, shuningdek, avtomobil transportiga o'tib ketgan yuk oqimlarini temir yo'l transportiga qaytarish masalalari yuzasidan kichik va yirik ishlab chiqarish korxonalari vakillari bilan uchrashuv tashkil etildi. Uchrashuv davomida temir yo'l transporti xizmatlaridan foydalanish samaradorligini oshirish, mavjud muammolarni bartaraf etish hamda hamkorlikni yanada rivojlantirishga qaratilgan bir qator masalalar muhokama qilindi.

Jumladan, "Qarshi MTU" filiali boshlig'i o'rinbosari **E.E.Nabiyev** so'zga chiqib, yuk tashishda temir yo'l transportining afzalliklari va qulayliklari haqida batafsil to'xtalib o'tdi. Shuningdek, u "O'zbekiston temir yo'llari" AJ tomonidan 2026-yilda import va eksport yo'nalishlarida joriy etilgan tarif chegirmalari hamda ularni qo'llash tartibi yuzasidan ishtirokchilarga tegishli tushuntirishlar berdi.

Uchrashuv jarayonida yuk jo'natuvchilar tadbirkorlar tomonidan quyidagi takliflar, murojaatlar hamda e'tirozlar bildirildi:

1. **"SHARQROS UNIVERSAL SERVIS" MChJ** ish boshqaruvchisi **O.X.Yog'mirov** so'zga chiqib, korxonadan "O'zbekiston temir yo'llari" AJ bilan olib borilayotgan hamkorlikdan mamnun ekanligini ta'kidladi. Shuningdek, hozirgi kunda mineral o'g'it mahsulotlarini tashish jarayonida vagonlarning Qarshi stansiyasiga belgilangan muddatlarda yetkazib berilishini ta'minlash yuzasidan amaliy yordam so'rab murojaat qildi.

2. **“QARSHI SEMENT TA’MINOTCHI” MChJ** ish boshqaruvchisi **R.H.Raxmiddinov** so‘zga chiqib, korxonadan Jizzax viloyatidan sement mahsulotlari olib kelinayotganligini ma’lum qildi. Shu bilan birga, **“Temiryo‘lkargo” AJ** vagonlari bilan ta’minlash hamda yuklarni belgilangan muddatlarda manzilga yetkazib berish masalalarida ayrim muammolar mavjudligini ta’kidladi. Mazkur muammolar korxonaning ishlab chiqarish va savdo faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotganini bildirib, ularni bartaraf etish hamda vagon ta’minotini yaxshilash yuzasidan amaliy yordam ko‘rsatishni so‘rab murojaat qildi.

3. **“OLIV QADAM” MChJ** vakili **A.A.Abdumuzimov** so‘zga chiqib, korxonadan un mahsulotlari Qarshi stansiyasiga olib kelinayotganligini ma’lum qildi. Shu bilan birga, yuklarni belgilangan manzilga yetkazib berish jarayonida muddatlarning cho‘zilib ketayotganligini ta’kidladi.

Shuningdek, **“OLIV QADAM” MChJ** yuklari tushiriladigan shoxobcha yo‘liga vagonlarni o‘tkazish jarayonida mazkur yo‘ldan oldingi shoxobcha yo‘li egalari bilan bog‘liq ayrim muammolar mavjudligini qayd etdi. Ushbu holat yuklarni o‘z vaqtida qabul qilish va tushirish jarayonlariga salbiy ta’sir ko‘rsatayotganini bildirib, muammoni hal etish yuzasidan amaliy yordam ko‘rsatishni so‘rab murojaat qildi.

4. **“ASIAN GOLDEN OIL” MChJ** ish boshqaruvchisi so‘zga chiqib, korxonadan qo‘shni davlat hisoblangan Qozog‘iston Respublikasidan joriy yil boshida bug‘doy mahsulotlari import qilinganligini ma’lum qildi. U o‘sha davrda mazkur tashuvlar uchun tarif chegirmalari qo‘llanilmaganligini, biroq joriy yilning aprel oyidan boshlab tarif chegirmalari joriy etilganligi hamda ushbu chegirmalar yil boshidan boshlab amal qilishi belgilanganligini ta’kidladi.

Shuningdek, hozirgi kunga qadar **“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ** tomonidan korxonaga qaytarilishi lozim bo‘lgan **182 198 535** so‘m miqdoridagi mablag‘ni undirish jarayonida ayrim muammolar yuzaga kelayotganligini bildirib, mazkur masalani hal etish hamda mablag‘larning qaytarilishini jadallashtirish yuzasidan amaliy yordam ko‘rsatishni so‘rab murojaat qildi.

5. **“QARSHI CARGO TERMINAL” MChJ** ish boshqaruvchisi so‘zga chiqib, korxonadan **“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ** bilan olib borilayotgan hamkorlikdan mamnun ekanligini ta’kidladi. Shuningdek, korxonadan Sariosiyo stansiyasidan Qarshi stansiyasiga sheben mahsulotlari olib kelinayotganligini hamda ushbu mahsulotlar

avtomobil yo'llari qurilishi va infratuzilma loyihalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etishini qayd etdi.

Shu bilan birga, hozirgi kunda "Temiryo'lkargo" AJ vagonlaridan foydalanish uchun belgilangan to'lovlar yuqori ekanligini bildirib, mazkur masalani ko'rib chiqish hamda tashish xarajatlarini kamaytirish yuzasidan amaliy yordam ko'rsatishni so'rab murojaat qildi.

6. "YAKKABOG' EXPRESS" MChJ ish boshqaruvchisi M.S.Turayev so'zga chiqib, hozirgi kunda korxonadan Qarshi stansiyasi orqali qo'shni Afg'onistonga sement mahsulotlari eksport qilinayotganligini ma'lum qildi. Shu bilan birga, joriy yil boshlarida mazkur tashuvlar Yakkabog' stansiyasi orqali amalga oshirilganligini ta'kidlab o'tdi.

Shuningdek, hozirgi kunda Yakkabog' stansiyasi orqali yuk tashuvlarini amalga oshirish maqsadida taqdim etilayotgan vagon ajratish bo'yicha talabnomalarga rad javoblari berilayotganligini bildirib, ushbu masalani ijobiy hal etish hamda Yakkabog' stansiyasi orqali tashuvlarni qayta yo'lga qo'yish yuzasidan amaliy yordam ko'rsatishni so'rab murojaat qildi.

7. Yuqorida ta'kidlanganidek, uchrashuvda ishtirok etgan boshqa tashkilotlar vakillari ham vagonlarning o'z vaqtida manzillariga yetkazib berilishini ta'minlash masalasini ko'tardilar. Shuningdek, Tanxoz, Yakkabog', Qamashi va G'uzor stansiyalari orqali qo'shni Afg'onistonga sement mahsulotlari eksportini amalga oshirish uchun "Temiryo'lkargo" AJ vagonlari bilan uzluksiz ta'minlash hamda vagon ajratish bo'yicha taqdim etilgan talabnomalarni belgilangan tartibda ko'rib chiqish va ijobiy hal etish yuzasidan amaliy yordam ko'rsatishni so'rab murojaat qildilar.

O'z navbatida, "Temiryo'lkargo" AJ Qarshi filiali boshlig'i A.I.Arslonov so'zga chiqib, murojaatchilar tomonidan bildirilgan e'tiroz va takliflar, shuningdek, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan zarur amaliy yordam ko'rsatilishini ta'kidladi. U har bir murojaat belgilangan tartibda ko'rib chiqilishi, mas'ul mutaxassislar tomonidan o'rganilib, qonunchilik talablari asosida tegishli choralar ko'rilishini ma'lum qildi.

Shuningdek, "Temiryo'lkargo" AJ tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, yuk tashish xizmatlari sifatini yanada yaxshilash, mijozlarga ko'rsatilayotgan xizmatlar ko'lamini kengaytirish hamda zamonaviy boshqaruv va raqamlashtirish tizimlarini joriy etish borasida olib borilayotgan ishlar haqida batafsil ma'lumot berdi. U mazkur

o'zgarishlar korxonaga faoliyatining samaradorligini oshirish, mijozlar ehtiyojlarini tezkor va sifatli qondirish hamda yuk tashish jarayonlarining shaffofligini ta'minlashga xizmat qilishini alohida qayd etdi.

Yuqoridagilarni inobatga olib,

MAJLIS QAROR QILADI:

1. Yuk jo'natuvchilarning temir yo'l transporti orqali yuk tashishni amalga oshirish bilan bog'liq mavjud muammolarini bartaraf etish yuzasidan tegishli chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish.

2. **"Temiryo'lkargo" AJ** Qarshi filiali boshlig'iga:

-yuk jo'natuvchilar tomonidan taqdim etilgan talabnomalarga muvofiq vagonlar bilan o'z vaqtida ta'minlash choralarini ko'rish va vagonlarga bo'lgan ehtiyojni muntazam tahlil qilib borish hamda yuk tashish jarayonining uzluksiz tashkil etilishini ta'minlasin.

-**"QARSHI SEMENT TA'MINOTCHI" MChJ** ish boshqaruvchisi **R.H.Raxmiddinov** murojaati amaldagi qonunchilik va belgilangan tartib asosida amaliy yordam ko'rsatish choralarini ko'rsin.

-**"QARSHI CARGO TERMINAL" MChJ** ish boshqaruvchisi murojaati amaldagi qonunchilik va belgilangan tartib asosida amaliy yordam ko'rsatish choralarini ko'rsin.

3. **"Qarshi MTU" filiali** Tashishlarni tashkil etish va stansiya ishlari bo'limi boshlig'i o'rinbosariga:

-vagonlarni yetkazib berish muddatlariga rioya etilishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatish;

-vagonlarning belgilangan muddatlarda manzilga yetkazilishini ta'minlash maqsadida Toshkent (YaDM) poyezd dispetcherlari bilan hamkorlikda vagonlarning kunlik harakatlanish me'yorlari bo'yicha tizimli ishlar olib borsin, amalga oshirilgan ishlar va erishilgan natijalar yuzasidan tegishli ma'lumotnoma tayyorlasin.

4. Qarshi xujjatlarni qayta ishlash texnologik markazi (TexPD) boshlig'iga

-**"ASIAN GOLDEN OIL" MChJ** ish boshqaruvchisi murojaati yuzasidan **"O'zbekiston temir yo'llari" AJ** tomonidan korxonaga qaytarilishi lozim bo'lgan **182 198 535** so'm miqdoridagi mablag'ni amaldagi qonunchilik va belgilangan tartib asosida amaliy yordam ko'rsatish choralarini ko'rsin.


5. **"Qarshi MTU" filiali** Yuk va tijorat ishlari bo'limi boshlig'iga:

-korxonalar rahbarlari tomonidan uchrashuv davomida bildirilgan muammo va murojaatlar yuzasidan tegishli takliflar ishlab chiqilsin hamda belgilangan tartibda ko'rib chiqish uchun kiritilsin;

-“YAKKABOG‘ EXPRESS” MChJ ish boshqaruvchisi M.S.Turayev murojaati shuningdek, Tanxoz, Yakkabog‘, Qamashi va G‘uzor stansiyalari orqali qo‘shni Afg‘onistonga sement mahsulotlari eksportini amalga oshirish uchun vagon ajratish bo‘yicha taqdim etilgan talabnomalarni amaldagi qonunchilik va belgilangan tartib asosida amaliy yordam ko‘rsatish choralarini ko‘rsin.

6. Ushbu bayonnoma qarori ijrosining nazoratini o‘z zimmasida qoldiraman.

Bayonnomaning yozib bordi:



U.B. Botirjonov

“Qarshi MTU” filiali Qarshi stansiyasida 2026 yil 2-iyun kuni stansiyada faoliyat yuritayotgan yuk junatuvchi va yuk qabul qiluvchi tadbirkorlar bilan uchrashuvdagi qatnashganlar

RO‘YXATI

№	F.I.Sh	Korxonona nomi	Lavozimi	Imzo
1	Дуьрегов Шардош	А.С.Т.Б.С. МЕН	иш бошқарувчи	
2	Анваров Бухтур	Qarshi LANGU.TM	Рахбар	
3	Найзагуев А.Г.	ASION GOLD	бухгалтер	
4	Закиров Қ. Ҳ.	ERIELL	Рахбар	
5	Норқизилов Абду	УИ СКЛОД	ташқиётчи	
6	Турсаб Мансур	Яккабоғ экспресс	раҳбар	
7	Ташев Мамма	Оқ Шар	иш бошқар	
8	Ташев Мамма	Мавнар Динмур	иш бошқар	
9	Ҳасанов Фарид	Р.В.Р.К. М.М.	иш бошқар	
10	Рахматиллоев Раҳмон	Qarshi select taminotchi KSK	Рахбар	
11	Хатаев Олмас	Рег-Химлогистика	иш бошқар	
12	Абдураҳманов Фархоб	Металлом	Та. иш бошқар	
13	Эмиров В.О.	Маркус Г.С. М.М.	Рахбар	
14	Бахронов А.И.	Мак Терра	ишчи	
15	Хушназаров Б.	Мак Терра	ишчи	
16	Хасанов Умар	Шкар Армстронг	раҳбар	
17	Ахмедов Оми	АКС М.М.	бухгалтер	
18	Бозоров Ш.	Келер Трейд Групп	бухгалтер	